

INGLIZ VA O'ZBEK TILARIDA HIS-TUYG'U KONSEPTINI IFODALOVCHI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING TARJIMA MASALALARI

Murodova Nazira Ilhomovna
Farg'ona davlat universiteti, f.f.f.d

Yakubova Nozima Asiljon qizi
Farg'ona davlat universiteti magistratura talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarining muqobilini topishdagi va tarjima qilishdagi masalalarni hamda usullarni tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: frazeologiya, obraz, tarjima nazaryasi, til, ideoma, tarjima masalasi, lug'at, frazeologik birlik, tarjima muammosi

Abstract. This article discusses the issues which may be faced in the process of the translation of phraseological constructions and finding counters of phraseological units in English and Uzbek languages.

Keywords: phraseology, image, translation theory, language, idiom, dictionary, phraseological units, , translation issue

Аннотация. Данная статья рассматриваются вопросы, с которыми можно столкнуться в процессе перевода фразеологических конструкций и нахождения счетчиков фразеологизмов в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: фразеология, ,образ , теория перевода, язык, , идиома, ,словарь, фразеологизмы , проблема перевода.

Kirish. Hozirgi tillar tez rivojlanayotgan zamonda ingliz va o'zbek tillarida ham so'z birliklarining tez o'sishi kuzatilyapdi va bu yangi frazeologizmlarni o'z vaqtida lug'atlardan qidirishda qiyinchiliklarga duch kelish va tarjimon ularni lug'atsiz tarjima qilishiga to'g'ri kelishi kuzatilmoqda. Frazeologik birliklarni tarjima qilishda juda ko'plab jihatlariga e'tibor qaratish kerakligi albatta sir emas. Tarjimon mustaqil holda frazeologiyani asosiy nazariyasi masalalarini hal qila olish, frazeologik birliklarni to'g'ri tanlay olish va ularning ifodaviy-uslubiy tarjimadagi vazifalarini belgilab bera olishi kerak.

Frazeologik birliklarning tarjimasining asosiy qiyinchiligi shundaki, lug'atlarning hech biri matnda frazeologik birikmalarni qo'llanishidagi rang-barangliklarni ta'minlay olmaydi.

Muhokama va natijalar. Bu borada O.Y. Petrova shunday deb yozadi: "Tarjimaning muayyan usulini tanlash asosan ibora komponentlari o'rtasidagi semantik aloqalar, grammatik norma harnda tarjima tilidagi so'z birikmasini hosil qilish xususiyatlari bilan belgilanadi (Petrova.2006, 18)".

L.Barxudarov, V.Komissarov, Fiterman, Levitskaya, O.Petrova va boshqalarnig tarjimaga oid yozgan adabiyorlarida frazeologik birikmalarni tarjima qilishning to'rtta usuli borligi haqida ma'lumot beriladi Ular quyidagilardan iborat:

1) obrazni qanday bo'lsa shundayligicha saqlash; 2) obrazni qisman o'zgartirish;

3) obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish va 4) tarjimada obrazni butunlay saqlamaslik yoki uni tushirib qoldirish.

Obrazni to'laligicha saqlash usuli uchun in the seventh heaven –yettinchi osmonda yani hursand baxtiyorlik his tuyg'usini beruvchi iborani misol qilib olishimiz mumkin bo'ladi. Bunda ular ma'no va ifoda usuli jihatidan bir xilligi hamda stilistik va pragmatik tomondan tarjimonga qiyinchilik tug'dirmaydi. G'ofurov I o'zining "Tarjima nazariyasi" kitobida bu usul odatda universal yoki intematsional obrazlar tarjimada to'liq saqlanishi. va bunday frazeologik birliklar tarixiy, afsonaviy, diniy, mistik, mifologik va shu kabilarga asoslangan bo'lishi haqida yozib o'tgan.

Ikkinchi obrazni qisman o'zgartirish usulida aslyat va tarjima tillarda bir xil fikr ifodlanadi, lekin obrazlarining kelishi bilan ular bir-biridan farq qiladi. Bunga misol qilib up in arms- mushtini tugmoq birligini olishimiz mumkin. Bu yerda bu ibora achchiqlanganidan va jahli chiqqanidan mushtini tugdi deb tarjima qilinganda frazeologik birlikdagi obraz qisman o'zgarishga uchraydi. Shunday bo'lsada tarjimada adekvat hisoblanadi: arm-musht. Tarjimada so'zlar bir-biriga tushmagan bo'lsa ham frazeologik birliklarda ifodalangan obraz bir xil.

Uchinchi usul ya'ni obrazni butunlay boshqa obraz bilan almashtirish haqida G'ofurov I o'zining "Tarjima nazariyasi" kitobida shunday yozadi: "Har bir xalqning til boyligi, jumladan frazeologik birliklari uning tarixi, madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzi, mentaliteti va xarakterli xususiyatlari va shu kabilarni aks ettiradi. Hamma uchun bir xil fikrlar turli xalqlar tomonidan turlicha ifodalanadi: o'zbeklar "tuyaning dumi yerga tekkanda", "qizil qor yoqqanda", "xapshanba kuni" deganda inglizlar "when pigs fly" frazeologik birligini qo'llashadi. Ikkala frazeologik iboradagi leksik birliklar bir-biriga, ayniqsa "tuya, qizil qor hamda xapshanba" butunlay to'g'ri kelmasada, "hech qachon sodir bo'lmaydigan ish-harakat, voqea" asosiy fikr hisoblanadi." Biz esa bu usulga his-tuyg'uni ifodalovchi frazeologik birlik uchun quyidagilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Masalan, "og'zi qulog'ida", "og'zining tanobi qochgan", "boshi ko'kka yetgan" degan iboralar o'zbeklar tomonidan ishlatilganda, inglizlar "on cloud nine", "like a dog with two tails" kabilarni ishlatadi. Yuqoridagi tahlil qilingan iboralardek bu frazeologik birliklarda ham leksik birliklar bir-biriga to'g'ri kelmaydi: og'iz, bosh kabi. Biroq ularning barchasi "juda hursand hamda baxtli" ma'nolarini beradi.

Oxirgi to'rtinchi usulga kelsak, bunda obrazlar butunlay saqlanmaydi yoki tushirib qoldiriladi. Sababi bazi hollarda tarjima qilinayotgan frazeologik birlikning na ekvivalenti va na o'xshash frazeologik birikma topiladi. Hamda frazeologik birlik tasviriy yo'l bilan tarjima qilinadi. Tasviriy usul erkin ko'chma

ma'noga asoslanmagan frazeologik birliklarni qo'llashni talab etadi: "feeling blue/have the blues"- "g'amgin" , "in a whole skin" - "bekamu-ko'st, soppa-sog', sog'-salomat beziyon".

Xulosa. Tarjimada tasviriy ifoda va tabiiylikning o'rnini hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydi. Tarjima qilish jarayonida uslub avvalgi o'rinda tursa, frazeologik birliklardagi uslub va unga mos tabiiylik berish o'ta muhim masala. Axir, o'quvchi asarga tarjimon ko'zi va tafakkuri bilan qaraydi, yashaydi va yondoshadi. Shunday ekan, tarjimon frazeologik birliklarni to'g'ri tanlay olishi va ularning ifodaviy-uslubiy jihatdan vazilarini belgilab bera olishi kkk.

References

1. I.G'ofurov, O.Mo'minov, N.Qambarov. Tarjima nazariyasi."Tafakkur Bo'stoni" Toshkent.2012
2. Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasi haqida. -T.:O_zMU. 2007 yil
3. Mirzayeva M & Sanginova D .Zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida frazeologik birliklarining konketktual ma'nosi va tarjima masalalarining xususiyatlari .2022. science and innovation.820-824
4. Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida fraze birliklarning semantik-grammatik va uslubiy psixologik. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: baholash, dioxroniya materiallari to'plami. - T.: Muharrir. 2012. –B.8-10. 6. Haydarov A., Jo'raqulova G
5. Safaraliev, Bozor professor; Bakiyeva, Gulandom professor; va Nasrullaeva, professor Nafisa (2020) —INGLIZ VA O_ZBEK IDIOMATIK iboralarni tekshirishning LINGVOULTURAL ASPEKTTI, Filologiya masalalari: jild. 2020: Iss. 3 , 3-modda